

UDK: 911.6:912.43

**SIRDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O‘RNI, CHEGARALANISHI VA  
UNING GIS TAHLILI**

*Tovbayev G‘ofur Zulkaynar o‘g‘li*

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

*e-mail: [gofurxperia@gmail.com](mailto:gofurxperia@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0009-0009-3326-4292>*

**Annotatsiya:** Sirdaryo viloyatining geografik o‘rni, hududi va chegaralari umumgeografik, tabiiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kartografik metod va GIS tahlili yordamida yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** Sirdaryo, geografik o‘rin, akkumulyativ, prolyuvial, geografik koordinata, “Sirdaryo o‘qi”.

**ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ГРАНИЦЫ И ЕГО ГИС-АНАЛИЗ  
СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

**Аннотация:** С помощью картографического метода и ГИС-анализа уточнены географическое положение, территория и границы Сырдарьинской области с общегеографической, природно-политической и экономической точек зрения.

**Ключевые слова:** Сырдарья, географическое положение, аккумулятивный, пролювиальный, географическая координата, «сырдарьинская ось».

**GEOGRAPHICAL POSITION, BORDERS AND ITS GIS-ANALYSIS OF THE  
SYRDARYA REGION**

**Annotation:** Using the cartographic method and GIS analysis, the geographical position, territory and boundaries of the Syrdarya region were clarified from a general geographical, natural-political and economic point of view.

**Key words:** Syrdarya, geographical position, accumulative, proluvial, geographical coordinate, "Syrdarya axis".

**Kirish.** Sirdaryo viloyati O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat bo‘lib, Respublikaning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Viloyat bevosita Qozog‘iston va Tojikiston Respublikalari hamda Toshkent va Jizzax viloyatlari bilan chegaralanadi. Geografik joylashuviga ko‘ra viloyat juda qulay joyda joylashgan. Viloyat hududi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan rivojlangan sharqiy va shimoli-sharqiy Toshkent, Farg‘ona vodiysi kabi asosiy mintaqalari bilan g‘arbiy, janubiy va

markaziy mintaqalari sanalgan Qoraqalpog‘iston-Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro-Navoiy, Samarqand, Jizzaxlarni tutashtirib turuvchi asosiy yo‘l ustida joylashgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sirdaryo viloyati geografik o‘rni, hududi chegaralanishi bo‘yicha ko‘pgina o‘zbekistonlik olimlar o‘zlarining o‘quv qo‘llanmalarida, darsliklarida mavzularning umumiy kichik qismi sifatida yozib qoldirilgan. Jumladan, L.Babushkin, N.Kogay (1964), P.Baratov (1996, 2002), M.Mamatqulov (2002), A.Rafiqov (2002), A.Soliyev (2014) kabi O‘zbekiston va MDHning buyuk geograf-olimlarining xizmatlari beqiyosdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Sirdaryo viloyati geografik o‘rni, hududi, chegaralarini umumgeografik, tabiiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan to‘liqroq yoritishda yuqorida zikr qilingan olimlarning adabiyotlari va ular ishlab chiqqan geografik kartalar orqali solishtirildi, GIS (QGIS dasturi - EPSG:3857 - WGS 84 / Pseudo-Mercator – Projected – proyeksiyasi) hamda Google Earth Pro dasturlari yordamida aniqlandi va tahlil qilindi.

**Asosiy qism va tahlil natijalari.** Sirdaryo viloyati Toshkent-Mirzacho‘l okrugining markaziy va janubiy qismida, Mirzacho‘l tabiiy geografik rayonining sharqiy va janubi-sharqiy qismida allyuvila va prolyuvial tekislik landshaftlariga ega bo‘lgan hududda bir necha botiq va balandlik hududidagi to‘lqinsimon tekisliklarda joylashgan [1]. Viloyatning sharq va shimoli-sharqida, asosan Sirdaryoning o‘rta qismida chap sohilidagi akkumulyativ terrasalarda joylashgan. Viloyatning umumiy maydoni 4280 km<sup>2</sup> va maydoni bo‘yicha ma‘muriy-hududiy birliklar ichida faqat Toshkent shahridan katta, viloyatlar ichida eng oxirgi o‘rinda turadi [2]. Viloyat asosan Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan hududlarini o‘z ichiga oladi. Viloyat asosan 40-41° shimoliy kengliklar hamda 68-69° sharqiy uzunliklar orasida joylashgan. Viloyatning geografik markazi 40°22′58.80″ sh.k., 68°47′54.00″ shq.uz.da bo‘lib, Mirzaobod botig‘iga tog‘ri keladi. Uning hududi janub va janubi-sharqdan shimol, shimoli-g‘arb va shimoli-sharqqa tomon pasayib borgan to‘lqinsimon keng tekislikdan iborat. Ushbu tekislikning shimoliy va sarqiy qismi Sirdaryo daryosi hosil qilgan allyuvial tekisliklarning hosilasi bo‘lsa, janubiy qismi Turkiston-Nurota tog‘ tizmasining yonbag‘irlariga ulanib ketgan tekisliklardir. Sirdaryo viloyatining sharqiy chegarasi Sirdaryo daryosi bo‘ylab shimoli-sharqdan ya‘ni 41°1′53″ sh.k., 68°36′16″ shq.uz.dan 40°33′49″ sh.k., 69°6′21″ shq.uz.gacha janubi-sharqiy yo‘nalishda so‘ngra janubga qarab 40°25′58″ sh.k., 69°7′8″ shq.uz.gacha yo‘naladi. Ushbu geografik koordinatadagi nuqta Sirdaryo viloyatining markaziy qismiga nisbatan eng sharqiy qismidir. So‘ngra janubi-g‘arbiy yo‘nalishda 40°12′43″ sh.k., 68°10′11″ shq.uz.gacha bo‘lgan tabiiy hududda Sirdaryo daryosi o‘zani orqali Chirchiq-Ohangaron okrugi bilan chegaralanadi. Viloyatning ekstremal eng chekka sharqiy nuqtasi uning janubi-sharqiy qismiga ya‘ni Shirin shahrining janubi-sharqiy qismida Sirdaryo daryosining Do‘stlik va Janubiy Mirzacho‘l kanallariga suv tarqatuvchi

to'g'on qismida  $40^{\circ}12'43''$  sh. k.,  $68^{\circ}10'11''$  shq. uz. dagi geografik koordinataga to'g'ri keladi. Viloyat janub va janubi-g'arbdan 310-330 m li izogipslar orqali Turkiston-Nurota okrugi bilan tabiiy chegaraga ega. Janubiy Mirzacho'l kanali mintaqasida 320-330 m [3]. Viloyatning eng janubiy qismi  $40^{\circ}9'58''$  sh. k.,  $68^{\circ}37'24''$  shq. uz. da Yangiyer shahrining janubi-g'arbiy qismida 12,42 km uzoqlikka to'g'ri kelib, dengiz sathidan 367 m balandda joylashgan. Viloyatning orografik jihatdan eng baland hududi ham uning janubiy qismida  $40^{\circ}9'58''$  sh. k.,  $68^{\circ}37'24''$  shq. uz. dagi geografik koordinataga to'g'ri kelib, dengiz sathidan 394 m balandda joylashgan. Biroq g'arbiy chegarada aniq tabiiy chegara belgilanmagan. Asosan M-39 avtomagistrali hamda unga parallel zovur suv yo'llari asos qilib olinadi. Chunki g'arbiy chegarani relyefga ko'ra olinsa relyef gipsometrik ravishda sharqdan g'arbga emas balki, janubdan shimolga kenglik bo'ylab pasayib boradi. Viloyatning eng ekstremal g'arbiy nuqtasi Paxtaobod shaharchasidan taxminan 9 km janubi-g'arbda  $40^{\circ}19'1''$  sh. k.,  $68^{\circ}5'36''$  shq. uz. dagi geografik koordinataga to'g'ri keladi. Viloyatning shimoliy qismi biroz nishab bo'lib Yettisoy botig'ida Qozog'iston Respublikasi bilan 250-265 m li izogipslar orqali chegaralanadi. Lekin ushbu chegara ham g'arbiy chegara kabi tabiiy chegarani ajratish qiyin. Viloyatning eng ekstremal shimoliy chekka nuqtasi Sirdaryo shahridan taqriban 20 km shimolda  $41^{\circ}1'53''$  sh.k.,  $68^{\circ}36'16''$  shq.uz. dagi geografik koordinatada yotadi.

Viloyat shimoliy yarimsharning  $40^{\circ}10'14.16''$  -  $41^{\circ}01'48.36''$  shimoliy kengliklar oralig'i va sharqiy yarimsharning  $66^{\circ}39'8''$  -  $69^{\circ}10'3.78''$  sharqiy uzunliklari orasida joylashgan. Viloyatning ma'muriy markazida Guliston shahrining  $40^{\circ}28'55''$  sh. k.,  $68^{\circ}10'21''$  shq. uz. dan Xovos shaharchasidan 5,1 km janubi-g'arbda  $40^{\circ}10'21''$  sh. k.,  $68^{\circ}47'54''$  shq. uz. gacha  $18'34''$  masofaga cho'zilgan.

Viloyatning **tabiiy chegaralanishida** sharqiy qismida asosan suv havzalari, ya'ni Sirdaryo daryosi muhim omil sanaladi. Sirdaryo daryosi viloyatni Toshkent viloyatidan ajratib turuvchi tabiiy chegara hisoblanadi. Toshkent viloyati bilan chegaraning umumiy uzunligi 144,86 km. Sirdaryo daryosining viloyat hududidagi umumiy uzunligi 177 km, o'rtacha eni 130-250 m, eng keng joyi  $40^{\circ}20'17''$  sh. k.,  $69^{\circ}07'25''$  shq. uz. kesishgan nuqtada 460 m, eng tor joyi  $40^{\circ}10'24''$  sh. k.,  $69^{\circ}05'40''$  shq. uz. kesishgan qismida 40-110 m, o'rtacha chuqurligi 1,5-3 m atrofida.

Viloyatning janubiy qismi Mirzacho'l dashtining janubi-sharqiy qismi bo'lgan tog'oldi tekislikka tog'ri keladi. Asosan Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati bilan 52,94 km masofada 310-330 m balandlikda tekislik orqali chegara o'tgan. Janubiy tabiiy chegarada asos qilib tekislik relyefi olingan. Eng baland qismi ham janubiy qismiga Xovos shaharchasining janubi-g'arbiy qismiga tog'ri keladi. Bu yerda eng baland joy 394 m tashkil etadi.

Viloyatning g'arbiy qismi asosan Mirzacho'l dashtining markaziy hududiga to'g'ri kelib, Jizzax viloyatining Paxtakor, Do'stlik, Dashtobod tumanlari orqali o'tadi. G'arbiy chegaraning uzunligi 118,9 km ni tashkil etadi. Bu yerda Sirdaryo viloyatining

dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 300-360 metrli izogipslar orqali o‘tadi. G‘arbiy chegara janubdan shimolga qarab pasayib boradi.

Viloyatning shimoliy chegarasi Mirzacho‘l dashtining bir qismi bo‘lgan Yettisoy va Chordara botig‘iga to‘g‘ri kelib, to‘liq ravishda Qozog‘istonning Turkiston viloyati bilan chegaralanadi. Shimoliy chegaraning umumiy uzunligi 132,759 km ni tashkil etadi. Shimoliy chegara Chordara botig‘i tomon pasayib boradi. Bu yerda ham tabiiy chegara omili sifatida relyefdan o‘tkazilgan. Viloyatning dengiz sathidan eng past joyi ham shu hududga to‘g‘ri kelib, Sirdaryo shahri hamda Sholikor va Malik qishloqlari atrofida 240-250 m ni tashkil etadi, eng past nuqtasi 222 m. Shimoliy chegara umumiy ravishda keng tekisliklardan iborat bo‘lib, o‘rtacaha 250-260 m li izogipslar katta maydonni egallaydi.

Sirdaryo viloyati nisbatan qulay **iqtisodiy** geografik mavqega ega. Viloyat mamlakatimiz doirasida g‘arb va janubi-g‘arbda Jizzax, sharq va shimoli-sharqda Toshkent viloyati bilan chegaradosh. Geosiyosiy o‘rni ham o‘ziga xos: Sirdaryo viloyati shimolda Qozog‘iston Respublikasining Turkiston viloyati bilan, janubda Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan chegaralangan. Viloyatning deyarli qoq o‘rtasidan kesib o‘tgan magistral yo‘llar (“Sirdaryo o‘qi”) ham uning geografik o‘rnining qulayligi, tranzit xususiyatga egaligini ko‘rsatadi [4].

*1-jadval*

**QGIS dasturi - EPSG:3857 - WGS 84 / Pseudo-Mercator – Projected – proyeksiyasi asosida aniqlangan Sirdaryo viloyati chegaralari**

T/r	Sirdaryo viloyati chegaradoshlari	Chegara uzunligi (km.da)	Chegara uzunligi (umumiy chegara uzunligiga nisbatan foizda)
1.	Jizzax viloyati	118,91	26,5
2.	Toshkent viloyati	144,86	32,2
3.	Turkiston viloyati, Qozog‘iston	132,76	29,5
4.	So‘g‘d viloyati, Tojikiston	52,94	11,8
<b>Sirdaryo viloyati chegaralari umumiy uzunligi</b>		<b>449,47</b>	<b>100,0</b>


**Xulosa.** Jadvaldan ma’lum bo‘ldiki viloyatning har bir chegaradosh hududlari bilan chegaralanish masofasi turli xil o‘lchamga ega. Bu chegaralanishni avvalo ichki (O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi hududlar bilan) va tashqi (qo‘shni Respublikalar bilan) chegaralanishga ajraish mumkin. Bunday tasnifga ko‘ra viloyatning tashqi chegaralari, ichki chegaralariga nisbatan uzunroq masofani tashkil etadi.

Jadvalni alohida tahlil etganimizda Sirdaryo viloyatini tashqi chegaralarining umumiy uzunligi 158,70 km yoki umumiy chegara uzunligining 41,3 % ini tashkil etsa,

ichki chegaralarining umumiy uzunligi 263,77 km yoki umumiy chegara uzunligining 58,7 % ini tashkil etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tashqi chegaralari viloyatning Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan (*chegara uzunligi 52,94 kmli va bu masofa viloyatning umumiy chegara uzunligini 11,8 foizini tashkil etadi*) hamda Qozoqiston Respublikasining Turkiston viloyati bilan (*chegara uzunligi 132,76 km va bu umumiy chegra uzunligini 29,5 % ini tashkil etgan*) chegaralariga to‘g‘ri keladi (1-jadval; 1-rasm).

Ichki chegaralari deyilganda viloyatning Toshkent viloyati bilan (*chegaralanish masofasi 144,86 km va bu masofa viloyatning umumiy chegara uzunligini 32,2 %ini tashkil etadi*), Jizzax viloyati bilan (*118,91 kmli masofada chegaralanishi va bu masofa viloyatning umumiy chegara uzunligini 26,5 foizini tashkil etishi*) chegaralanishi ma‘lum bo‘ladi (1-jadval; 2-rasm).



**1-rasm. Sirdaryo viloyati chegaradosh hududlarning chegaralar uzunligining qiyosiy diagramma ko‘rinishi.**

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. P. Baratov. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 1996. 186-187-betlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2023-yil yanvar holatidagi O‘zbekiston Respublikasi yer maydonlari to‘g‘risidagi ma‘lumoti [www.stat.uz](http://www.stat.uz)
3. P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent. “O‘qituvchi” 2002. 329-bet.
4. A.Soliyev. O‘zbekiston geografiyasi. Toshkent. “Universitet”. 2014. 153-bet